


VI. TRANSPORT



2024- yilning yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi 417,9 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining oʻsish surʻati 115,6 foizni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 14,9 foizni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari boʻyicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bogʻliq boʻlgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2024-yilning 1-aprel holatiga koʻra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bogʻliq boʻlib, faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 377 birlikni, yoki ularning umumiy sonining 3,1 foizini tashkil etdi. Ulardan 373 birlik (98,9 %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari boʻyicha ifodalanishi

Transport xizmatlarining turlari boʻyicha tarkibi
(2024-yil yanvar-mart)



Avtomobil

96,5

Yordamchi transport faoliyati

2,5

Pochta

1,0





Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo'yicha ifodalanishi

	2024 yil yanvar-mart	2023 yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati foizda
--	----------------------	---

Avtomobil transporti xizmatlar

Tashilgan yuk, mln. tonna	8,5	102,9
---------------------------	-----	-------

shu jumladan:

Avtomobil transportida	8,5	102,9
------------------------	-----	-------

Yuk aylanmasi, mln. tn-km	259,5	101,4
---------------------------	-------	-------

shu jumladan:

Avtomobil transportida	259,5	101,4
------------------------	-------	-------



Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yuklarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi – 53,7 foiz.


Taqqoslash uchun: 2023- yilning yanvar-mart oylarida ushbu ko'rsatkich 52,2 foizni tashkil etgan.

Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

	2022-yil	2023- yil	2024-yil
Yuk	56,3 %	52,2 %	53,7 %
Yo'lovchi	43,7 %	47,8 %	46,3 %



**Transport turlari bo'yicha yuk tashish, yuk aylanmasi,
yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi
(2024 yil yanvar-mart)**



Yo'lovchi tashish 2024 yilning yanvar-mart oylarida barcha transport turlari tomonidan 21,7 mln. kishi tashilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,6 foizni tashki qildi.

Yirik korxonalar bo'yicha:

Viloyatda kuzatilayotgan davrda avtotransport ishi bo'yicha hajmli korxonalar soni 22 tani tashkil etib, ular tomonidan quyidagi asosiy ko'rsatkichlar shakllandi:

Tashilgan yuklar hajmi 0,5 mln.tonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 251,5 foizni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 6,2 %);

Yuk aylanmasi hajmi 5,8 mln. t-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,2 foizni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 2,2 %);

Tashilgan yo'lovchilar hajmi 1,0 mln. yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,8 foizni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 4,7 %);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 13,2 mln. yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 87,8 foizni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 2,2 %).

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yo'lovchi tashish bo'yicha ulushi 95,3 foizni tashkil etgan.



Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

	2024 yil yanvar-mart	2023 yil yanvar-martga nisbatan foizda
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln. Kishi	21,7	102,6
<i>shu jumladan: avtomobil transportida</i>	<i>21,7</i>	<i>102,6</i>
Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	593,3	100,8
<i>shu jumladan: avtomobil transportida</i>	<i>593,3</i>	<i>100,8</i>

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha:

2024 yil yanvar-mart oylarida avtomobil transporti bo'yicha quyidagi asosiy ko'rsatkichlar shakllandi:

Tashilgan yuklar hajmi 5,6 mln. tonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,5 foizni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 65,7 %);

Yuk aylanmasi hajmi 106,5 mln. t-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,2 foizni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 41,0 %);

Tashilgan yo'lovchilar hajmi 7,3 mln. yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,7 foizni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 33,4 %);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 154,2 mln. yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,6 foizni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 26,0 %).

Yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'yicha:

Tashilgan yuklar hajmi 2,4 mln.tonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,8 foizni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 28,1 %);

Yuk aylanmasi hajmi 147,2 mln. t-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,5 foizni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 56,8 %);

Tashilgan yo'lovchilar hajmi 13,4 mln. yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,8 foizni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 61,9 %);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 425,9 mln. yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,6 foizni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 71,8 %).